

# NYU-YORK SHTATI JISMONIY TARBIYA TALIM STANDARTLARI BO'YICHA OTA-ONALAR UCHUN QO'LLANMA (2020)




## Jismoniy tarbiya nima va u bolam uchun negamuhim ahamiyatga ega?

- o Jismoniy tarbiya:
  - malakaga asoslangan o'quvpredmeti
  - diplomga ega jismoniy tarbiya o'qituvchisi tomonidan o'qitiladi
  - NYS da [maktabni bitirish uchun talab qilinadi \(2 ta kredit\)](#)
  - yangi NYS Jismoniy tarbiyani o'qitish standartlariga (2020) asoslangan darslarni o'z ichiga oladi
  - natijalarga erishish uchun mo'ljallangan ketma-ket harakatlardan tarkib topgan
- o Jismoniy tarbiya va jismoniy harakatlar turli narsalardir. O'quvchilar malakalarni o'rganishva qo'llay olishlari uchun ularning ikkasi ham kerak. Bularsiz o'quvchilar bu malakalarnio'rganish yoki amalda qo'llash imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Jismoniy tarbiya va jismoniy harakat ~~qatnash~~ jismoniy jihatdan savodli bo'lish uchun ularning bilim, ko'nikmava ishonchlarini rivojlantiradi.
- o Jismoniy savodxonlik barcha insonlarningsog'lom rivojlanishiga yordam beruvchi turli muhitlardahar xil turdagi jismoniy harakatlarni bajarishda malaka va ishonch bilan harakat qila olish qobiliyati sifatida ta'riflanadi.

# Nima uchun standartlar qayta ko'rib chiqildi va ular qachon qo'llaniladi?

- o 2018-yilda Nyu-York shtati (NYS) birinchi marta 1996-yilda qabul qilingan jismoniy tarbiya standartlarini (2020) qayta ko'rib chiqish va yaxshilash jarayonini boshladi. O'quvchilarning sinf darajasigamos bo'lishlari va jismoniy tarbiya darsida nimalarni bilishlari va nimalarni qila olishlari kerakligini aks ettirish uchun standartlar yangilandi.
- o [Nyu-York shtati Jismoniy tarbiya ta standartlarini \(2020\)](#) to'liq qo'llash 2023-2024-o'quv yilidan boshlanadi.



## NYS o'qitish standartlari farzandimningo'qishiga qanday ta'sir o'tkazadi?

- o Maqsadlar yaxshi belgilab berilganida o'rganish eng yaxshi darajada bo'ladi. Bu model o'rganishning muhim qismlaribirgalikda qanday ishlashlarini ko'rsatadi. O'qitish standartlari o'quvchilar o'quv yilining oxiriga kelib o'rganishlari kerak bo'lgan umumiy bilim va malakalarni aks ettiradi. Asosiy e'tiborda bo'lgan o'quvchining o'rganishi o'quv dasturi, ko'rsatmalar va har bir maktab okrugi tomonidan shakllantiriluvchi baholash tizimiga bog'liq bo'ladi.
- o Maktab okruglarining muassasalari, jihozlanishi, dars vaqtlari va boshqamintaqaviy omillar o'rtasida sezilarli farqlar mavjud.  
Nyu-York shtati Jismoniy tarbiya ta'lim standartlari (2020) rivojlanish jihatdan barcha o'quvchilar, jumladan nogiron o'quvchilar va ingliz tili o'rganuvchilari uchun mos keladi va ularning jismoniy tarbiya dasturlarini shakllantirishda joylarda moslashuvchan bo'lish imkonini beradi.



# Nyu-York shtati Jismoniy tarbiya ta'lim standartlari (2020) nima?

**STANDART 1.** Turli motor harakatlari va harakat namunalarida malakalilikni namoyish qiladi.

**STANDART 2.** Harakatlar va bajarishga bog'liq bo'lgan tushunchalar, tamoyillar, strategiyalar va taktikalar bo'yicha bilimni amaliyotda qo'llaydi.

**STANDART 3.** Jismoniy harakatlar va tayyorgarliknisog'liqni mustahkamlash darajasiga olib chiqish va uniushlab turish uchun bilim va malakalarni namoyish qiladi.

**STANDART 4.** O'zini va boshqalarni hurmat qiluvchi mas'uliyatli shaxs va ijtimoiy xulq-atvorni ko'rsatadi.

**STANDART 5.** Umumiy salomatlik, zavqlanish, muammolarni hal qilish va/yoki o'zini-ifodalash uchun jismoniy harakatlar qiymatini e'tirof etadi.

**STANDART 6.** Martaba o'sish imkoniyatlarini tan oladi va umumiy salomatlikka erishish va uni saqlab qolish uchun shaxsiy va hamjamiyat resurslarini boshqaradi.



## Ota-onalar uchun resurslar

[K dan avvalgi sinflar uchun standartlar hujjati](#)

[NYS Jismoniy tarbiya ta'limo' standartlari bo'yicha ma'lumotlar](#)

[Jismoniy tarbiya yangiliklari](#)

[Amerikani SHAKLLANTIRISH](#)

[Amerikani shakllantirish posteri](#)

Nyu-York shtati Jismoniy tarbiya ta'lim standartlari uchun quyidagi QR kodni skanerlang:

